

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'tasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



УО'К: 101.1

AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING POSTMODERN JAMIYATDAGI O'ZIGA XOS JIHATLARI

МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ В ПОСТМОДЕРННОМ ОБЩЕСТВЕ

MORAL VALUES AND THEIR DISTINCTIVE ASPECTS IN POSTMODERN SOCIETY

Xusanov Davronjon Ma'rufjonovich

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishning nazariy asoslari, postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishining dialektik tahilili, postmodern jamiyatning axloqiy qadriyalarini shakllanishi va unga yondashuvning istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, axloqiy qadriyatlар va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari tahsil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы изучения диалектики изменений моральных ценностей в постмодернном обществе с социо-философской точки зрения. Приводится диалектический анализ изменений моральных ценностей в постмодернном обществе, исследуется формирование моральных ценностей и обсуждаются перспективы данного подхода. Кроме того, анализируются особенности моральных ценностей в постмодернном обществе.

Abstract

This article explores the theoretical foundations for researching the dialectics of changes in moral values within postmodern society from a socio-philosophical perspective. It provides a dialectical analysis of the changes in moral values in postmodern society, examines the formation of moral values, and discusses the future prospects for approaching this topic. Additionally, it analyzes the distinctive aspects of moral values in postmodern society.

Kalit so'zlar: postmodern jamiyat, axloqiy qadriyatlар, dialektika, dialektik tahsil, ijtimoiy normalar, axloqiy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlар, separativizm, fundamentalizm, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamnaviyilik, qiyosiy tahsil, analiz va sintez, tizimli va funksional.

Ключевые слова: постмодернное общество, моральные ценности, диалектика, диалектический анализ, социальные нормы, моральное мировоззрение, национальные и универсальные ценности, сепаратизм, фундаментализм, социальные законы, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системный и функциональный.

Key words: postmodern society, moral values, dialectics, dialectical analysis, social norms, moral worldview, national and universal values, separatism, fundamentalism, social laws, traditionalism and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systemic and functional.

KIRISH

Axloqiy qadriyatlар turli xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, e'tiqodi, psixologiyasi, diniy qarashlari, milliy manfaatlari, mafkurasi bilan bevosita bog'liqdirlar. Bu esa axloqiy qadriyatlар milliy, mintaqaviy qiyofa kasb etishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun turli xalqlarda axloqiy qadriyatlarga, ularni belgilash mezонlariga yondashish, ularga amal qilish darajasi ham aynan bir xil bo'lmaydi. Axloqiy qadriyatlarning milliy jihatlari ana shu tariqa shakllanadi. Har bir millat o'z qadriyatlarning nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajak avlodlarga yetkazuvchisi hamdir. Milliy axloqiy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'ulidir. Ushbu mas'ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan axloqiy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo'lishini anglatadi. Hatto mustamlakachilik sharoitida yashagan xalqlarda ham milliy axloqiy qadriyatlар butunlay yo'qolib ketmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxs axloqiy va ijtimoiy-ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalalari, nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, axloqiy va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy muammolari bilan bog'liq masalalar J.Anderson, S.Anisimov, G.Belov, M.Veber, I.Ilin, V.Konev, Y.Borev, L.Gumilyov, A.Guseynov, V.Lektorskiy, I.Ilinskiy, M.Kagan, S.Agzamxodjayeva, J.Tulenov, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboyev, E.Yusupov, S.Shermuxammedov, X.Shayxova, Mahmud Sattor, A.Jalolov, S.Otamuratov, A.Sharipov, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, A.Erkayev, O.G'aybullayev, I.Arzimatova, D.Normatovalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axloqning kommunikativ funksiyasi – bu umumiy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqish uchun odamlar o'tasida fikr almashish, bir- birini tushunib, umumiy xulosalarga kelishda o'zaro aloqa qilish vositasi vazifasini bajaradi. Axloq tufayli xalqlar, elatlar, millatlar bir birlari bilan aloqada bo'lib, fikr almashib, o'zlariga xos, manfaatlariga mos keladigan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqadilar hamda ularga og'ishmay amal qilishni yo'lga qo'yadilar.

Kishilik jamiyati paydo bo'lidan boshlab odamlar o'tasida vujudga kelgan axloqiy munosabatlar hayot chig'riqlaridan qayta-qayta o'tib, axloqiy amaliyotda o'z tasdig'ini topib inson va jamiyat uchun nihoyatda ijtimoiy ahamiyat kasb etib, eng qadrlanadigan narsa axloqiy fazilatga aylanib borgan. Ana shu axloqiy fazilat, sifatlar asta-sekinlik bilan kishilar hayotida axloqiy qadriyat maqomini olgan.

Axloqning kelib chiqishi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, bajaradigan funksiyalari hamda qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqatlardan kelib chiqqan holda "axloqiy qadriyatlar" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Axloqiy qadriyatlar deb, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg'un, barqarorlik kasb etib o'zligini bildirib, namoyon etib, nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlarning muayyan tizimiga aytildi.

Axloqiy qadriyatlar sirasiga insonparvarlik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiq ko'ngillik va mardlik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylilik, sabr-qanoat, hayolilik va pokizalik, homiylik va saxovat, fidoyilik, sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, sihat-salomatlik, jasurlik va boshqalar kiradi. Axloqiy qadriyatlarga rioya qilishni har bir shaxs o'zidan boshlashi kerak. Eng assosiysi, jamiyatda bor axloqiy qadriyatlarni bilish emas, balki ularga amal qilishdir. Har bir shaxsning o'zi uchungina alohida axloq bo'lmaydi. Buni anglamagan odam boshqalar rioya qilayotgan axloq normalari bilan hisoblashishni o'zi uchun majburiy deb bilmaydi. Axloq mezonlarini faqat "men" bilan bog'lashning o'zi axloqsizlikdir. Axloq odamlar o'tasidagi munosabatlarni belgilovchi ma'naviy mezon, demak, axloqlilik shaxs faoliyatining jamoatchilik belgilagan ma'naviy mezonlariga mos kelishidir.

Axloqiy qadriyatlarning tabiatini quyidagi tasnifga ko'ra izohlash mumkin. Eng avvalo, axloqiy qadriyat shaxsning qilgan har qanday xatti-harakati emas, balki, har tomonlama o'ylab, ongli ravishda sodir etadigan yoki sodir etgan ijobiy axloqiy xatti-harakatidir. Aniqrog'i, axloqiy qadriyat bu ideallik va reallikning dialektik birligidir, yuksak orzu va unga mos keluvchi aniq xatti-harakatlarni o'zida aks ettirgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar tizimidir. Masalan, baxtli hayot kechirish har bir insonning hayot mazmunini tashkil etuvchi yuksak orzusi bo'lsa, unga erishish uchun sodir etayogan aniq axloqiy xatti-harakati, ya'nii mehnatsevarligi, insoniyligi, sabr-qanoati - reallikdir. Baxt - insonning yurish turishi, turmush sharoitlari jamiyatdagagi o'rniga berilgan axloqiy bahodir. Insonning hayotda baxtga erisha olishining asosiy sharti bu axloqiy yetuklikdir. Axloq inson qalbidan chiqayotgan nurga qiyoslanar ekan, baxtni ham ana shu nurga o'xshatish mumkin. Bu nur ba'zilarda juda ravshan, yorug' bo'lsa, ba'zilarda xira bo'ladi. Ba'zilarda esa, umuman sezilmaydi. Baxtning mazmuni insonning shaxsiy hayoti doirasi bilangina belgilanmaydi. Baxt odamlar o'tasidagi munosabatlar asosida belgilanadi. Agar inson faqat o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab, boshqalar bilan adolat, imon, insof bilan munosabatda bo'la olmasa, u insonni baxtli deb ayta olmaymiz. Baxt har bir insonning shaxsiy hayotiga daxldor bo'lsa ham, uning mezonlarini jamiyat, jamoatchilik belgilaydi.

ILMIY AXBOROT

Jamiyatda, kimki odamlar orasida o'zining halol mehnati, yuksak, namunali axloq-odobi, boshqalarga hurmat bilan, oqilona, odilona, halol, pok, insoniylik munosabati asosida obro'-e'tibor orttisra ↗ o'sha baxtli odamdir. "Inson o'zining qay darajada baxtli ekanini anglamoqchi bo'lganida, -deb yozadi akademik Erkin Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslar" kitobida,- o'zining mol-dunyosi, oilaviy hayotigagina emas, balki boshqalarning unga bo'lgan munosabatiga ham tayanmog'i kerak". Behisob boylikka, katta mansabga ega bo'lsa ham, jamaot e'tiboridan qolgan xudbin inson baxtli emas. Yuksak axloqli, odobli, xushxulq,, o'ziga ravo ko'radianini boshqalarga ham ravo ko'radian, razolat botqog'iga botmagan, ilm-ma'rifatli, bilimli bo'lib g'ofillarining ishini qilmaydigan, odamlarga, qarindosh-urug'lari faqat yaxshilik qilishga intiladigan, xayr-ehson qiladigan, mehr-muruvvat ko'rsatadigan, muhtojlarga yordam berib, bemorlarni borib ko'radian, bir-birlarini ko'rganda salomlashib yuradigan, gina, kek va adovat saqlamaydigan, behuda gapirmaydigan, tilini tiyib yuradigan, jahli chiqqanida o'zini bosib tura oladigan, yashashdan maqsad faqat mol-dunyo orttirish, deb o'ylamaydigan, bema'ni gaplarni gapirmaydigan, o'z oilasini, farzandlarini hurmat qiladigan, halol mehnat bilan kun ko'radian, mol-mulkining boriga shukr qiladigan, imon-insofga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yashaydigan inson baxtlidir.

Olimlarning tadqiqotlari asosida baxtning quyidagi to'rt shartini ko'rsatish mumkin:

1. Baxt – inson o'zini hurmat qilishidir. Bunday odamlar o'zlariini ma'rifatli, odobli deb biladilar va boshqalarning ruhini ko'tarib, kayfiyatini yaxshilashga harakat qiladilar.
2. Kelajakka umid va ishonch bilan qarash. Baxt – muvaffaqiyatga erishish, u ishonchi mustahkam bo'lgan odamlarning qo'liga kelib qo'nadi.
3. Baxtli odamlarning odatda, irodasi kuchli bo'ladi. Ular boshqalar bilan muloqotga kirishib, ko'proq do'stlar orttirishga harakat qiladilar.
4. Baxtli odamlar o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarish ko'nikmasiga ega bo'ladi, ular hissiyotlarga berilib, murakkab vaziyatda o'zlarini yo'qotib qo'yaydilar.

Albatta, yuqorida ko'rsatilgan faqatgina to'rt omil baxtning ma'no-mazmunini to'liq belgilab bera olmaydi. Insonning hamma narsasi yetarli, o'ziga to'q, farzandlarini yaxshi tarbiyalagan, turmush o'rtog'i bilan osuda hayot kechirayotgan bo'lishi va o'zini baxtli hisoblashi mumkin. Lekin inson o'zining oilaviy baxtiga, farzandlarining yurish-turishiga, e'tiqodi qay darajada mustahkamligiga boshqalarning nuqtayi nazaridan ham qaray bilishi shart. Shuning uchun ham, axloqiy qadriyat bir vaqtning o'zida yuksak orzu va, ayni vaqtida, reallik hamdir.

Demak, axloqiy qadriyatlarning tabiatini, birinchidan, yuksak orzu va amaliy xatti-harakatdan iborat bo'lgan reallikning o'zaro birligidan iboratdir.

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar inson yoki jamiyatning biror – bir faoliyati doirasiga bilan chegaralanib qoladigan qismi emas. Masalan, u faqat mehnat yoki sevgi-ishq munosabatlari bilan chegaralanib qolmaydi. Balki, inson borlig'ining barcha jabhalarini qamrab oladi. Axloqiy qadriyat odamzod qayerda inson, shaxs sifatida mavjud bo'lsa, u ham shu yerda hoziru nozirdir. Inson qanchalik urinmasin, u hech qachon axloqiy qadriyat ta'qibidan qochib qutula olmaydi. Masalan, inson iqtisod, siyosat, oilaviy turmush, dam olish va hokazolar bobida doimo axloqiy qadriyatlar talabidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi va axloqiy xatti-harakatlar sodir etadi. Shunday qilib, axloqiy qadriyatlarning ikkinchi muhim tabiatini, uning har bir shaxs yoki insonning jismoniy va ma'naviy vujudida qat'iy o'rashib organligi bilan ifodalananadi.

Uchinchidan, axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud holatini emas, balki ongli hayot-faoliyati yo'nalishining miqdoriy va sifatiy jihatini ifodalab, shakl-shamoyilini ko'rsatib, unga muqarrarlik baxsh etadigan hodisa hisoblanadi. Masalan, yaxshi niyatlar bilan boshlangan nikoh to'yi, albatta, axloqiy qadriyatlar tufayli baxtli-saodatlari oilaning shakl-shamoyilini belgilab beradi va uning paydo bo'lishini muqarrar qilib qo'yadi. Demak, axloqiy qadriyatlarning uchinchi tabiatini uning muqarrarligida ko'rindi.

To'rtinchidan, axloqiy qadriyatlar u yoki bu jamoa, siyosiy kuchlar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy kodekslar qanchalik mukammal bo'lmasin, baribir, uning talablari doirasiga sig'maydi. Chunki, u insoniyat axloqiy tarbiyasining hosilasi sifatida doimo harakatda bo'lib cheksizlik sari intiladi. Bu cheksiz harakat insoniyatni yangidan-yangi olijanob ezgu-maqsadlar sari boshlab boradi.

Axloqiy qadriyatlarning ko'laminu chegaralab qo'yish oxir oqibatda, insonning axloqiy-

ma'naviy kamolotini cheklashga olib keladi. Axloqiy qadriyatlarning to'rtinchi tabiatи uning muayyan axloqiy talablarni qo'yuvchi kodekslar doirasidan chiqib insoniyatni yangidan-yangi ezgu-maqsadlar sari boshlab boradigan cheksiz harakatlari bilan ifodalanadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda axloqiy qadriyatlarni har bir kimsaning turli odamlar, narsalar, buyumlar, hodisalar, voqealar jarayonlar qurshovida yashashini, ularning biri inson uchun qadrli bo'lsa, ikkinchisi qadrsiz ekanligini, xullas, insoniyat olamining ko'pdan-ko'p moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosidan iborat ekanligini tan olish bilan belgilash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ma'naviy qadriyatlarning mag'zini faqat axloqiy qadriyatlar tashkil etishini anglab yetish hamda axloqiy qadriyatlar hayotdan ajralgan qandaydir abstrakt kuch emas, balki, dunyoviy negizga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy kuch ekanligini e'tirof etish zarur.

Jamiyat rivojining burilish nuqtalarida axloqiy qadriyatlar xalqni har xil bo'hronlardan asrab qoluvchi ma'naviy hodisa ekanligi bir qator xususiyatlar bilan belgilanadi. Avvalo, axloqiy qadriyatlar mohiyatan shaxs odobi va inson xulqidagi ijobiy fazilatlarni mujassam etadi. Axloqiy qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra umuminsoniy axloqiy qadriyatlar (insonparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, o'zaro hurmat, qonuniylik, jamoatchilik va boshqalar)ga, milliy axloqiy qadriyatlar (mehmondo'stlik, kattalarga nisbatan hurmat, saxovat, homiylik, ota-onani e'zozlash, bolajonlik va hokazolar)ga hamda shaxsiy axloqiy qadriyatlar (kasbiy burchni bajarish, sevgisiga sadoqatli bo'lism, halol rizq topish, so'zining ustidan chiqish, oila sha'nini saqlash, haromdan hazar qilish)ga turkumlanadi.

Bulardan tashqari, axloqiy qadriyatlarni axloqning tarkibiy tuzilishiga qarab axloqiy ongda barqaror shakllangan axloqiy-ma'naviy qadriyatlar (jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan kodekslar, me'yorlar, tamoyillar, mafkuraviy g'oyalari. Masalan, "Harbiy qasamyod", "Shifokor qasamyodi", "Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb odobnomasi"); axloqiy amaliyotda bevosita qo'llaniladigan axloqiy qadriyatlar (yaxshilik yoki adolatdan iborat maqsadni ko'zlab, uni amalga oshirishning ixtiyoriylik yoki majburlash vositalarini qo'llab pirovard natijaga olib keluvchi qadriyatlar), axloqiy munosabatlar tufayli zohir bo'ladigan axloqiy qadriyatlar (burch, shartni bajarish, halollik, saxiylik, kamtarlik, uddaburonlik, tadbirkorlik, kelishuvchanlik, murosa va hokazolar)ga ajratish mumkin.

Axloqiy qadriyatlarning bunday xususiyatlari qotib qolgan aqida emas, balki yangi axloqiy qadriyatlar yuzaga kelishi bilan ular son va sifat jihatidan kengayib, o'zgarib boradi.

Shaxsning ma'naviy kamoloti jarayonida uning komil inson bo'lib shakllanishiga bevosita va bilvosita faol ta'sir o'tkazadigan qadriyatlar jumlasiga umuminsoniy, milliy, shaxsiy axloqiy qadriyatlar kiradi.

XULOSA

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, deb butun insoniyatning obodligi, ozodligi, ravnaqi yo'lida xizmat qilgan va qiladigan eng qadrli va umumijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarga aytildi. Unga Yer sayyorasining atmosfera qatlamini asrash, yer yuzida tinchlikni saqlash, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, demokratiyani qaror toptirish, inson huquqlarining poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, halqaro xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish, turli xil kasalliklarning oldini olish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, onalik va bolalikni muhofaza etish va hokazolar kiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, 1995. –Б. 15
2. Абу Наср Форобий. Фазилат, баҳт-саодат ва камолот ҳақида. -Т.: "Ёзувчи", 2001. 1-86-6.
3. Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. - Т.: «Янги аср авлоди», - 94-б.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. - Тошкент.: "Ёзувчи". 1996. –Б.143.
5. Митина О.В. «Женщина в обществе. Женское гендерное поведение в социальном и кросскультурном аспектах». М.: Общественные науки и современность. №3, 1999.с.179-180
6. Назаров К. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. – Т.: "Маънавият", 1998. - 41-б.
7. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистани. -Тошкент.: «Шарқ ». 1994. –Б. 9.
8. Сайдов А., Таджикханов У. Давлат ва хукуқ асослари. - Т.: «Шарқ»,.. 2002. -32-б.
9. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. - Тошкент.: «Университет», 1998. -Б. 82.
10. Тўракулов Э., Раҳимов С. Абу Райхон Беруний руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. -Т.: "Ўқитувчи", 1992. - 68-б.